

УДК: 377.017.4:004(575.2)

O‘ZBEK MILLIY KASHTADUZLIGI BILAN BOG‘LIQ URF - ODATLAR

Алмардонова Мохичехра Фахриддиновна

Термиз давлат университетнинг эркин тадқиқотчи

Манзил: 100080, Термиз ш. Б.Авлод кўчаси, 43 уй.

mail: mohichehraalimardanova1989@gmail.com

Аннотация: Хозирда еʼtibordan qolib ketayotgan kashtachilikda oʻziga hos xususiyatlar mavjud ularning koʻrinishlari, kashta sifati, oʻzbek milliy kashtaduzligining jixatlarini taxlil qilishda qadimdan oʻzlashtirilgan maʼdaniy meroslarda iz qoldirgan, turli manzillarda boʻlgan oddiy xizmatchi va xunarmand aholi yashashini oʻrab turgan muxitdan koʻrinishlar, yozuvlar, tasvirlar istiqomat qilgan utrar xalqning urf odatlarini ifodalovchi rang - barang koʻrinishlar mavjud. Zamonaviy kashtalarning tikilishida oʻzgacha sifatlari mavjud boʻlib va urf - odatlar, aloqalar tufayli xalqlardan - xalqlarga aloqalar kashta tikishda yozuvli kashtani oʻrni va uning oʻxshashligi, bir-biridan farq qiluvchi ayrim jixatlar vujudga keladi. Zamonaviy texnologiyalarni keng qoʻllash va ularni ishlab chiqarishga tadbiiq qilish imkoniyatlari, muommolarni yechish boʻyicha taxlillar, kashta sifatning pasayishiga va kashtalarning yoʻqolib ketishiga barxam berish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

Калит soʻzlar: Oʻzbek milliy kashta, kashta sifati, urf – odatlar, xalqlararo milliylik, ilmiy yondashuvlar.

*СВЯЗАННЫЙ С УЗБЕКСКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ВЫШИВКОЙ
УРФ - ПРИВЫЧКИ*

Алмардонова Мохичехра Фахриддиновна

*Независимый научный сотрудник Термезского государственного
университета*

Адрес: 100080, г. Термез. улица Б.Авлод, дом 43.

mail: mohichehraalimardanova1989@gmail.com

Аннотация: Вышивка, которой сейчас пренебрегают, имеет свои особенности, свой внешний вид, качество вышивки, культурное наследие, которое издревле осваивается при анализе аспектов узбекской национальной вышивки, есть разные цвета, представляющие их повадки. В вышивке современной вышивки есть особые качества, и благодаря традициям, обычаям, связям народов с народами, месту письменной вышивки и ее сходству, а также некоторым аспектам, отличающимся друг от друга, в вышивке проявляются. Широкое использование современных технологий и возможностей их

применения в производстве, анализ решения проблем, устранение снижения качества вышивки и исчезновения вышивки – одна из главных задач сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Узбекская национальная вышивка, качество вышивки, обычаи, интернациональная национальность, научные подходы.

*RELATED TO UZBEK NATIONAL EMBROIDERY
URF - HABITS*

*Almardonova Mokhichekhra Fakhriddinovna
Independent researcher of Termiz State University
Address: 100080, Termiz sit. B.Avlod street, 43 house.
[mail:mohichehraalimardanova1989@gmail.com](mailto:mohichehraalimardanova1989@gmail.com)*

Annotation: Embroidery, which is now neglected, has its own characteristics, their appearance, quality of embroidery, the cultural heritage that has been mastered since ancient times in the analysis of the aspects of Uzbek national embroidery. There are different colors that represent their habits. There are special qualities in the embroidery of modern embroidery, and due to traditions, customs, connections from nations to nations, the place of written embroidery and its similarity, and some aspects that differ from each other, appear in embroidery. Wide use of modern technologies and possibilities of their application to production, analysis of problem solving, elimination of decrease in quality of embroidery and disappearance of embroidery is one of the main tasks of today.

Keywords: Uzbek national embroidery, quality of embroidery, customs, international nationality, scientific approaches.

KIRISH. Insonlar xadimdan dunyoni bilishga intilish, tabiatga bulgan qiziqish, undagi narsalarni aniqlashga intilish tuyg'ularini turli ko'rinishda namoyon etishgan. Bu kashtalarda xam o'z aksini topgan. Kashtalarda aks etgan bunday bezaklarni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin:

Kashtaduzlik bilan bog'liq qator urf - odatlar bo'lib, ular hozirgacha saqlanib avloddan - avlodga o'tib kelmoqda. Nikox tuyi marosimlarida kelinni ota uyidan kuyovning uyiga tushurib borishda kelinning sep - sidirlalari orasidan joy olgan milliy kashta buyumlari kelinning bo'lg'usi uyiga olib borib bezatilgan. Zardevorlar kelinning uyiga osilib, uying mexrob tomoniga joynamoz va qushkiyiklar osilgan. Shundan sung kelinlik liboslari osib quyilgan. Kelin uyi zardevor bilan bezatilganda, kelin va kuyovga kuz tegmasin, umri bokiy, xayoti suzana gullaridek guzal bulsin, kelin va kuyov qushkiyikdek bog'lanib, umrining oxirigacha qusha qarisin deb qushkiyiklar osib quyilar edi. Kashtalarda usimlik yoki uning ayrim elementlari aks

etgan. Bunda lola, tuvakdagi gul, guldasta, anor, olma, atirgul, olmagul, bodomgul, uzum, yakkagul kabi bezaklardan foydalanganlar.

Surxon vohasida suzana urniga zardevor, deb nomlangan kashta buyumi kup tikilgan. Bu buyum tajribali kashtaduz Mahmadmurod Shomirzaev ta'kidlaganidek, kelin sepining ichida bulib, kelin uyi devorlarini bezash uchun ishlatilgan. Surxon vohasida axolisi orasida kashtaduzlar ikkiga: usta kashtaduzlar va yosh kashtaduzlarga bulingan. Keksa kashtaduzlar suzana, devorchoyshab, nikox tuylari uchun choyshablarni qadimiy choklardan foydalanib tikishgan. Ular bosma, yurma, durya chok, ilmoq, suv choklaridan foydalanishgan. Yosh kashtachilarga bu xunardan zerikmasligi uchun mayda buyumlar tikish tavsiya qilingan. Agar qizning maxorati tez ortib, xunari sayqal, unga yirikroq (suzana, joynamoz, tagchoyshab kabi) buyumlarni tikish ishonib topshirilgan. Uz xunarining barkamolligiga ishongan kashtachi yirik kashtalarni mustaqil ravishda tikishga kirishgan. Qizning turmushga chiqishi tezlashlashtirilsa, seplarni mukammal tayyorlash uchun uning xaridosh urug'lari, quni - qushnilari, dugonalari yordamga kelishgan.

Urf - odatga ko'ra, Surxon vohasida yashovchi utroq xalqlarda xam, chorvador xalqlarda xam qiz farzand kelin bo'lib tushayotgan uy, bir kun oldin kashta buyumlari bilan bezatilgan. Bu uyni bezatishdan quyidagi orzu, maqsad nazarda tutilgan:

Birinchidan, kelinga kuz tegmasin, kashta buyumlari uni yomon kuzlardan asrasin, degan niyatda bo'lgan.

Ikkinchidan, kelin bulayotgan qizning aql - zakovati, kashta tikish maxorati kuyov tomondan kelganlarga, kuyovning qarindoshlariga ko'rsatilgan.

Shu kuni kelinning buvisi yoki momosi tomonidan tikilgan kashtali tagchoyshab kelin va kuyov joyiga yopilgan. Kelin va kuyov qusha qarisin, uvali - juvali bo'lsin, deb duo qilingan. Shundan sung kelinning yuz ochdisi kuni ertalab kelpi kurdi marosimi utkaziladi. Bu marosimga kelin aloxida tayyorlanadi. Boshiga kashta tikilgan duppi, ustiga esa atlas kuylak, kashta tikilgan uzun nimcha (kamzul) kiyadi, duppinig ustiga chiroyli kashta tikilgan oq rumol urab kelin salomga chiqadi.

Kelinni kurgani kirgan erkaklarga kashta tikilgan chorsi yoki kiyik, ayollarga kashta tikilgan sochiq, yoshlarga esa kashta tikilgan rumolchalar beriladi. Ular esa kelinga sovg'a - salomlar olib kiradi. Kaynota - qaynonasiga kashta tikilgan joynamoz sovg'a qilinadi. Yuqorida keltirilgan rasm - rusumlar, urf - odatlar, asosan, Surxon vohasining Denov, Termiz, Angor, Boysun tumanlaridagi utroq xalqlarida XIX asr oxiri - XX asr boshlarida odat bulgan, ayrim elementlari xozir xam saqlanib qolgan. Kashta tikishni boshlash va kashta tasvirlarida xam rasm - rusumlar mavjud. Yosh qiz kashta tikishni urganishni rumolchaga kashta tikishdan boshlagan va kashta tikkan birinchi rumolchasini ariqga oqizgan. Sababi kashta tikuvchining umri uzun bo'lsin, uning kashtalari ko'p tikilsin, suv singari kashta tikuvchi yuli pok bo'lsin, baxti begubor bo'lsin, deb shunday qilishgan.

O'troq yashagan xalqlarda kashta bezaklarida mevali daraxtlar, usimliklar, parrandalar tasviri bo'lib, unda tasvirlangan xar bir mevaning o'z ma'nosi bor. Kashtada tasvirlangan anor medr - muruvvatli, axil - inoq yashash ramzi xisoblangan. Kashtadagi olma tasviri sevgi - muxabbat ramzi sifatida tasvirlanib, ko'p bolali, ko'p farzandli bo'lishni tilab tikilgan.

Bu kashtalarni xalqimiz, xususan, ayol xidoyatidagi uyg'un jidatlar, nafislik, jozibadorlik samarasi, deb qarash mumkin. Kashta tikuvchi maxoratli, undagi fazilatlarni o'z qushnilariga aytib kuylashgan. Bu esa inson ruxiyatiga quvonch bagishlab, kashta tikuvchi faoliyatini tezlashtirar edi. Kashta tikuvchi o'z mexnatidan mamnun, kashta esa nihoyatda jozibador chiqqan.

Kashtachilik san'ati o'z tavsifiga ko'ra, xalqchil san'at bo'lib, oddiy xalqning (ayollarning) estetik dunyoqarashini aks ettirgan. U qadimgi an'analarga tayangan dolda, xalq turmushi bilan chambarchas bog'langan. XX asr kashtachilik buyumlari bozorga muljallanmagan, asosan, xonadon edtiyojini dondirish, urf -odatlarni davom ettirish uchun tikilgan. Kashta namunalari estetik zavq, ma'naviy va rudiy ozuda berish vazifasini xam bajargan.

Kashtachilik bilan bog'liq urf - odatlar borasida shuni aytish joizki, yosh kashtachi qiz yettita oq rumolchaga yetti xil gul tikib, uni yettita dushni bolalarga bersa, uning baxdi ochiladi, deb hisoblangan. Kashta tikayotgan chevarlar qalbidagi beg'ubor orzusi taklarni rang - barang ipak iplar orqali mayin, nafis, guzal naqshlar ordali tikib izxor etganlar.

Ayollar uchun qalb izxorini yagona tasvirlash vositasi bo'lgan kashtachilik, ularning ichki dunyosini, ruxiy va ma'naviy boyligini aks ettiruvchi vosita bo'lgan. Shuning uchun xam qizning uyiga kelgan sovchilar dasturxoniga qushib, agarda qiz sovchi yuborgan yigitga rozi bo'lsa, o'zi kashta tikkan rumolchalaridan birini yuborgan. Bu esa qizning yigitga dil izxori, rozilik belgisi hisoblangan.

Kashtachilikda doimiy saqlanib dolgan urf - odatlardan yana biri kashta tikuvchi chevar tikayotan kashta gulining bir bulagini tikmay qoldirganida. Bu esa kashta tikish davom etsin, avlodlar bardavom bo'lsin, degan ma'noga ishora bo'lib hisoblangan. Xatto kashta tikuvchi ayol tikayotgan kashtasidagi ba'zi gullarni farzandi tugilishi bilan bog'lagan. Xar bir farzandi tug'ilganda bitta gul tikib, gul rangini farzandning ug'il - qizligiga qarab tanlagan. Agarda qiz farzand tugilsa, qizil rangli ip bilan gul tikilgan, o'gil bola tug'ilsa, kuk rangli ip bilan gul tikilgan.

XULOSALAR

Hulosa qilib aytadigan bo'lsak, ayrim kashtalar butun oila tula shakllanguncha tikilgan. Shuning uchun xam oila a'zolarini tashkil qiluvchi farzandlar tug'ilib, voyaga yetgunga qadar bu ish davom etgan. Bu esa oila bilan bog'lid kashtalar hisoblangan. Kashtalarda tumor ko'rinishdagi naqshlar bo'lib, bular yomon kuzdan asrasin, kuz

tegmasin, degan ma'noda ishlatilgan bo'lib, uchburchak kurinishda ifodalanadi. Bu naqsh kelin-kuyovlarni yovuz kuchlardan ximoya qiladi, deb hisoblangan.

Suzana va qushkiyik gullarida gul oxirigacha tugatilmaganini kurishimiz mumkin. Bu avlodlar davom etsin, kashta gullari bitib, avlod davomiyligi tuxtab qolmasin, degan ma'noni anglatgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Абдураззацов А. А. XIX асрнинг охири - XX асрнинг бошларида узбек хотин-кизларнинг чеварчилик касб - хунарлари. // *Общественные науки Узбекистане.* - 1998. - № 1. - Б. 27-30.
2. Поль Э. Жойнамоздаги рамзлар. // *Санъат.* - 2001. - 3-сон.
3. Shomirzaev M. X. Innovative pedagogical technologies in teaching technology. Textbook //Т: Tafakkur. – 2021.
4. Сухарева О. Среднеазиатское искусство вышивки // *Советская этнография.* - М., - 1981. -№ 3. — С. 71-77.
5. Shomirzayev M. K. Developing Educational Technologies In School Technology Education //Next Scientists Conferences. – 2022. – С. 14-23.
6. Shomirzayev M. K. et al. National handicrafts of Uzbekistan and its social-economic significance //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2020. – Т. 8. – №. 8. – С. 129-138.
7. Shomirzayev M. K. Education is personally focused technology //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2020. – Т. 8. – №. 8.
8. Shomirzayev M. K. Technology of Educational Process in School Technology Education //The American Journal of Social Science and Education Innovations. – 2020. – Т. 2. – №. 07. – С. 212-223.
9. Shomirzayev M. K. The Ethical Characteristics of Traditional Embroidery of Fergana Valley People //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. – 2019. – Т. 2019.
- Shomirzaev M. X. Innovative pedagogical technologies in teaching technology. Textbook //Т: Tafakkur. – 2021.
10. Shomirzayev MX. "innovatsion pedagogik texnologiyalar. Darslik." Т.:“TerDU nashr-matbaa markazi 226 (2020).
11. Shomirzayev M. K., Yuldashov K. K. Use of Some Historical Materials in Technology Education Classes //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 11. – С. 184-195.
12. Shomirzayev M. K., Yuldashov K. K. Student-Folk Craft for Young People Teaching History as a Factor of National Education //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2021. – Т. 8. – №. 8. – С. 475-486.
13. Shomirzayev M. K. Pedagogical technologies-as a factor to increase student knowledge in school technology classes //current research journal of pedagogics. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 84-96.